

XII. KORXONA VA OBYEKTЛАRNI XUSUSIYLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumotiga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 478 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxonalar va obyektlar (keying o'rinlarda – obyektlar) xususiylashtirildi.


Xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra)

	Xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni		Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar	
	birlik	Jamiga nisbatan foizda	mln. so'm	Jamiga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi	478	100,0	684 537,4	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22	4,6	8 237,4	1,2
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	31	6,5	19 023,4	2,8
Buxoro	18	3,8	19 991,7	2,9
Jizzax	28	5,9	1 302,2	0,2
Qashqadaryo	48	10,0	5 749,0	0,8
Navoiy	19	4,0	1 864,6	0,3
Namangan	77	16,1	27 125,7	4,0
Samarqand	22	4,6	29 175,6	4,3
Surxondaryo	8	1,7	2 714,3	0,4
Sirdaryo	11	2,3	2 496,6	0,4
Toshkent	61	12,8	27 213,0	4,0
Farg'ona	85	17,8	22 140,1	3,2
Xorazm	27	5,6	16 511,5	2,4
Toshkent sh.	21	4,4	99 994,5	14,6
Agentlik markaziy apparati	-	-	400 997,9	58,6

Hisobot davrida eng ko'p xususiylashtirilgan obyektlar soni Farg'ona viloyatida – 85 ta (17,8%), Namangan viloyatida – 77 ta (16,1%), Toshkent viloyatida – 61 ta (12,8 %), Qashqadaryo viloyatida – 48 ta (10,0 %), Andijon viloyatida – 31 ta (6,5%), Jizzax viloyatida – 28 ta (5,9%), Xorazm viloyatida – 27 ta (5,6 %)ni tashkil etdi.

Korxonalar va obyektlarni xususiylashtirish


2021- yilning yanvar-iyunida vazirlik va idoralar
kesimida xususiylashtirilgan davlat
obyektlarining tarkibi (jamiga nisbatan % da)



Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari tarkibida eng ko'p ulush mahalliy hokimiyatlarga 273 ta obyekt (respublika bo'yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 57,1 % i), O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi - 87 ta obyekt (18,2 %), Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga - 85 ta obyekt (17,8 %), Xalq ta'limi vazirligiga - 6 ta (1,3 %) to'g'ri keldi.

2021 yilning yanvar-iyunida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 684,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyunida respublika hududlari
kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan
tushumlar tarkibi (jamiga nisbatan % da)




Hududlar kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Agentlik MAgaga (barcha tushumlarning 58,6 % i), Toshkent shahri (14,6 %), Samarqand (4,3 %), Toshkent (4,0 %), Namangan (4,0 %), Farg'ona (3,2 %) va Buxoro (2,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.



➤ Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida 2021- yilning yanvar-iyunida obyektlarni ijaraga berish bo'yicha 20,5 mingdan ortiq ijaraga shartnomalari tuzildi.



➤ Natijada 2,9 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.



➤ Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlar jami 227,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



➤ Hududlar kesimida davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 47,8 % i), Toshkent (7,4 %), Xorazm (7,1 %) Samarqand (5,3 %) va Farg'ona (4,6 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Korxonalar va obyektlarni xususiy lashtirish

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha savdolar (kim oshdi savdolari) – sotuvchi yoki ko‘chmas mulk tashkiloti, shuningdek, kim oshdi savdolari va kim oshdi savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot, shu jumladan, elektron shaklda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishni tashkillashtirish.

Xaridor – qonun xujjatlariga muvofiq, davlat mulki bo‘lgan ko‘chmas mulk obyekti (bundan buyon matnda oldi-sotdi shartnomasi deb yuritiladi) uchun sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzgan nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti).

Investisiya majburiyati – investor tomonidan investisiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun olgan majburiyati.

Ijtimoiy majburiyatlar – pul qiymatiga ega bo‘lmagan va qonunga zid bo‘lmagan shakllarda amalga oshiriladigan davlat mulkini sotishda xaridor tomonidan qabul qilingan majburiyatlar.

Auksion – tanlov asosida xaridor bilan savdoning shakli, bunda unga eng yuqori narxni taklif etgan ishtirokchi davlat mulkini sotish shartnomasini tuzish huquqini oladi. Auksionlar ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin.

Balansda saqlovchi – balansida davlat ko‘chmas mulki bo‘lgan yuridik shaxs.

Boshlang‘ich narx – kim oshdi savdosiga ochiq mulkni berish uchun sotuvchi tomonidan belgilangan narx.